

“TASDIQLANGAN”

“Kapitalbank” ATB Kengashi

tomonidan 2018 yil 25 dekabr

(51-sonli bayonnoma)

Bank Kengashi raisi

K.A. Olimov _____

“KAPITALBANK”

AKSIONER TIJORAT BANKINING 2019 YILGA

DIVIDEND SIYOSATI

Toshkent-2018

1. UMUMIY QOIDALAR

1. “Kapitalbank” ATB ning (keyingi o‘rinlarda - bank) mazkur Dividend siyosati, (keyingi o‘rinlarda - siyosat) “Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida”gi (Yangi tahrir), “Aksiyador jamiyatlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish” (Yangi tahrir) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 943-son bilan 05.07.2000 yilda ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 472-son bilan 24.06 2000 yilda tasdiqlangan Tijorat banklarida korporativ boshqarish to‘g‘risidagi Nizom, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va bank Nizomiga muvofiq, 2019 yilga aksiyalar bo‘yicha dividendlar hajmi, ularni to‘lash sharti, tartibi va muddatlari haqida tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha banking maqsad va strategiyasini belgilab beradi.

2. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, bank Nizomi va uning ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan investitsion jozibadorlikni, moliyaviy barqarorlik va bank kapitalizatsiyasini oshirish, aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish va ularga amal qilishga asoslanadi.

3. Mazkur Siyosatga binoan, aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan banking sof foydasining bir qismi dividend hisoblanadi. Dividendlar aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga ko‘ra mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan, dividendlar aksiyadorlarga pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari, yoki bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanadi.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlarni bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Bank bankning joylashtirilgan aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega.

6. E‘lon qilingan dividendlarni to‘lash bankning majburiyati hisoblanadi. Bank amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan dividendlarni olish huquqiga ega aksiyadorlar oldida mazkur majburiyatni bajarmaganligi uchun javobgar bo‘ladi.

7. Aksiyadorlarga tegishli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashda bank soliq agenti hisoblanadi. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan dividendlardan soliqlarni hisoblash, ushlab qolish va summalarini o‘tkazishni yoki imtiyozli soliq solish tartibini qo‘llaydi. Bank dividendlarni aksiyadorlarga, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida ko‘zda tutilgan, ulardan ushlangan soliqlar summalarini chegirgan holda to‘laydi.

2-BOB. SIYOSAT TAMOYILLARI

8. Siyosatning asosiy tamoyili bank aksiyalari bo‘yicha to‘lanadigan dividendlar hajmini muayyan barqaror darajada saqlash. Amalga oshirilayotan

siyosat bank aksiyalari bozor narxlarini oshirish va lozim darajada saqlab turishga qaratilgan.

9. Siyosat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) o'z vaqtida amalga oshirish tamoyili, bunda dividend to'lovlarini amalga oshirishda vaqt cheklovlarini belgilab qo'yish;

b) asoslilik tamoyili, bunda bank tomonidan, bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib va uni rivojlantirish rejalari hamda investitsiya dasturini hisobga olgan holda, ijobiy moliyaviy natijaga erishlgan taqdirdagina dividendlarni to'lash va ularning miqdori haqida qaror qabul qilinishi mumkinligi nazarda tutiladi.

3-BOB. DIVIDENDLAR HAJMINI ANIQLASH TARTIBI VA ULARNI TO'LASH TO'G'RISIDA QAROR QABUL QILISH (E'LON QILISH)

10. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, agar boshqasi Qonunchilik va bank Nizomida ko'zda tutilmagan bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qarorlar qabul qilishga haqli. Har bir aksiya turi bo'yicha dividendlarni to'lash, uning hajmi, shakli va to'lash tartibi to'g'risida qaror (moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra) bank Kengashi tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilinadi. Dividend hajmi bank Kengashi tavsiyasi, to'g'riligi auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bankning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori (e'loni) tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

11. Bank Kengashining aksiyadorlar yig'ilishiga tavsiyalari tarkibiga dividendlarni to'lashga ajratilgan foydaning umumiy summasi, shuningdek har bir turdagi bitta aksiyaga hisobidan to'lanadigan dividend summasi kirishi kerak.

12. Dividendlar bankning o'z tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarda taqsilanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar fayda miqdori yetmagan yoki bankning zarar ko'rishi holda jamiyatning shu maqsad uchun maxsus tashkil qilingan jamg'armalari hisobidan va chegarasidagina to'lanishi mumkin.

13. Dividendlarni to'lash oqibatida bankning moliyaviy-xo'jalik holati jiddiy yomonlashadigan bo'lsa, dividendlarni to'lash taqiqlanadi.

14. Bank quyidagi hollarda aksiyalar hisobidan dividendlar to‘lash (e‘lon qilish) to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega emas:

a) bank ustav kapitalining hammasi uning aksiyadorlari tomonidan to‘liq to‘lab bo‘lguniga qadar;

b) dividendlar to‘lash paytida bank iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomatlariga ega bo‘lsa yoki ko‘rsatilgan alomatlar bankda dividendlar to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;

v) bank sof aktivlari qiymati uning ustav va zaxira kapitali summasidan kam bo‘lsa;

g) bankning Nizomi yoki boshqa ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan tartibda, bankning moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish choralarni amalga oshirishni, shu jumladan aksiyadorlarga dividendlar to‘lashni to‘xtatish yo‘li bilan talab qilish huquqiga ega.

Mazkur bandda ko‘rsatilgan hol bartaraf qilingandan so‘ng, bank hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to‘lab berishi shart.

15. Dividendlarni to‘lashda amalda mavjud hamda hisoblangan, lekin olinmagan foiz daromadlari summasiga to‘g‘rilangan foydadan kelib chiqish zarur.

16. Bank to‘lanadigan dividendlar hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunchilikda o‘rnatilgan muddatlarda korporativ axborotlar Yagona portalida /www.openinfo.uz/, bankning veb sahifasida /www.kapitalbank.uz/ va “Toshkent” Respublika Jamg‘arma birjasi saytida /www.uzse.uz/ e‘lon qiladi.

4-BOB. DIVIDENDLAR OLISH HUQUQIGA EGA SHAXSLAR

17. Aksiyalar hisobidan dividendlar olish huquqiga aksiyadorlarga dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllangan bank aksiyadorlari reyestrda ro‘yxatga olingan shaxslar ega.

18. Bank tomonidan oddiy aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlarni to‘lash dividendlarni olish bo‘yicha aksiyadorlarning ten huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Dividendlarni to‘lash vaqtida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha, so‘ng oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha

qayd qilingan dividendlarni to‘lash uchun yetarli foyda mavjud bo‘lganda bank ko‘rsatilgan aksiyalar egalariga dividendlar to‘lashni rad qilish huquqiga ega emas.

19. Har bir aksiya turi bo‘yicha dividendlarni to‘lash, uning hajmi, shakli va to‘lash tartibi to‘g‘risida qaror bank Kengashi tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qabul qilinadi.

20. Nizomda hajmi belgilangan imtiyozli aksiyalar hisobidan to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan dividendlar yig‘ilib keyinchalik to‘lanadi.

21. Egasi yoki egasining qonuniy vorisi yoxud merosxo‘ri tomonidan uch yil davomida talab qilib olinmagan dividendlar, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq, bank ihtiyorida qoladi.

22. Dividendlar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda bankning aybi bilan to‘lanmaganda to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblab to‘lanadi.

23. Aksiyador bank tomonidan hisoblangan dividendlar va sud tartibidan penya to‘lanishini, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘rnatgan tartibda, talab qilishga haqli (to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar hajmining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak).

Aksiyadorning bankga nisbatan talablari sud tomonidan qanoatlantirilgan holda bank dividendlarni to‘lashdan bosh tortgan holda, to‘lay olmaslikni bartaraf qilish choralari yoki qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda bankrot deb e‘lon qilish tartibi qo‘llaniladi.

5- BOB. DIVIDENDLARNI TO‘LASH TARTIBI

24. Bank aksiyalar bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlarni to‘lashning boshlanishi va yakunlanishi sanalari ko‘rsatiladi. Dividendlarni to‘lash muddati dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan e‘tiboran 60 (oltmish) kundan ortiq bo‘lmasligi lozim.

25. Bank dividendlar to‘lash majburiyatini dividendlar to‘lash muddati davomidan istalgan kunda bajarishga haqli.

Bank O‘zbekiston Respublikasi norezidenti aksiyadorining yozma talabiga ko‘ra, unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag‘larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisob varag‘iga

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘lash kuniga kursi bo‘yicha o‘tkazib berishi shart.

Bank aksiyadorlarining reyestridan olingan, bank tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma hamda buxgalteriya tomonidan hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana ma’lumotnomasi ayirboshlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

26. Bir aksiyadorga hisoblangan dividendlar summasi muayyan turdagi aksiyalarning bittasiga to‘g‘ri keladigan dividendlar summasini aksiyador ega bo‘lgan mazkur turdagi aksiyalar soniga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

27. Bank dividendlar hajmini ularga solingan soliqlarni hisobga olmagan holda e‘lon qiladi.

6- BOB. YAKUNIY QOIDALAR

28. Mazkur siyosat, shuningdek unga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Mazkur siyosatda ko‘zda tutilmagan hollarda, bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko‘zda tutilgan me‘yorlarga amal qiladi.

30. Mazkur siyosatning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va/yoki bank Ustaviga zid bo‘lgan holda bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va/yoki bank Nizomida belgilangan me‘yorlarga amal qilish lozim.

Bunda bankning tegishli organi tomonidan mazkur siyosatni qayta ko‘rib chiqish va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki bank Nizomiga, mazkur siyosatning 28-bandida belgilangan tartibda, moslashni ta‘minlaydi.

Kiritilgan:

Bank investitsiya faoliyatini
muvofiglashtirish va monitoringi
deparamenti direktori

Amanova N.A.

Kelishilgan:

Boshqaruv Raisi

Karimbayev Sh.K.